

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**





**5140100 – Biologiya yo‘nalishi (kunduzgi ta’lim shakli)  
bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat  
attestatsiya sinovi**

**DASTURI**

*2023/2024 o‘quv yili*



**Tuzuvchilar:**

Komilov D.  - NamDU Biologiya kafedrası mudiri, PhD  
Ismatov A.  - NamDU Biologiya kafedrası katta oqit., PhD  
Turayeva Z.  - NamDU Biologiya kafedrası dotsent, PhD  
G'ulomov R.  - NamDU Biologiya kafedrası katta oqit., PhD

**Taqrizchilar:**

Melanova M.  - NamMTI dotsenti, PhD  
Xusanova A.  - NamMTI dotsenti, PhD

5140100 - Biologiya ta'lim yo'nalishi (kunduzgi ta'lim shakli) bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Biologiya kafedralarining 2024-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_\_\_-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**



**D. Komilov**

5140100 - Biologiya ta'lim yo'nalishi (kunduzgi ta'lim shakli) bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat universiteti Kengashining 2024-yil «18» martdagi № 9 -sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

**Kengash kotibi:**



**A. To'xtaboyev**



## I. UMUMIY QOIDALAR

1. 5140100 - Biologiya ta'lim yo'nalishi (kunduzgi ta'lim shakli) bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o'rinlarda – **Dastur**) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009 yil 22 maydagi 160-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom, 2018 yil 25 avgustdagi 744-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 5140100 - Biologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari" (keyingi o'rinlarda – **Malaka talablar**) hamda № B5140500 tartib raqami bilan ro'yxatga olingan o'quv rejasining (keyingi o'rinlarda – **O'quv rejas**) umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (keyingi o'rinlarda – **Attestatsiya sinovi**) O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta'lim yo'nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko'ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o'quv rejasidagi ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari shart.

3. Attestatsiya sinovini topshirishga o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga ruxsat beriladi.

4. Attestatsiya sinovi o'quv rejasining umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining barchasini qamrab oladi hamda sinov topshiriqlari ushbu fanlar o'quv dasturlari asosida tuziladi.

5. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining malaka talablarida bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

## II. ATTESTATSIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI

6. 2023/2024 o'quv yilida 5140100 - Biologiya ta'lim yo'nalishi (kunduzgi ta'lim shakli) bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi - **Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'tkaziladigan test sinovlari** shaklida o'tkaziladi.

7. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab, o'quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shaklini o'zgartirish mumkin emas.

8. Attestatsiya sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga asosan, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi va kamida bir oy oldin talabalarga etkaziladi.

## III. ATTESTATSIYA SINOVI SAVOLNOMASI

9. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining
- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;
  - kasbiy faoliyatga;
  - umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

**10.** Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi O'quv rejasida keltirilgan quyidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

### **SITOLOGIYA FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI UCHUN SAVOLLAR RO'YXATI**

1. Hujayra biologiyasini o'rganishda qo'llaniladigan usullar.
2. Eukariot hujayraning tuzilishi.
3. Eukariot va prokariot hujayra farqlari.
4. Hujayra metabolizmi.
5. Endoplazmatik to'r turlari va vazifasi.
6. Sitoplamatik membrana.
7. Hujayra o'lchamlari va tarkiblari.
8. Adgeziya hodisasi.
9. Plazmolema hosilalari.
10. Membrana tarkibi va o'tkazuvchanlik hususiyati.
11. Endositoz va fagasitoz.
12. Lizosoma va uning kimyoviy tarkibi.
13. Endoplazmatik retikulum.
14. Goldji aparatining tuzilishi.
15. Preksisoma tuzilishi.
16. Vakuola kimyoviy tarkibi.
17. Sferasoma hosil bo'lishi.
18. Hujayradagi membranasiz organellalar.
19. Hujayradagi yadrosiz organellalar.
20. Ikki qavat membranalı organellalarnı tuzilishi.
21. Oqsil biosintez jarayoni.
22. Hujayra plastida turlari.
23. Fotosintetik pigmentlar.
24. Plastidalar shakllari.
25. Eukariot ribasomalari.
26. Prokariot ribasomalari.
27. Mitoxondriyada ATF sintez jarayoni.
28. Yadro tuzilishi va uning vazifasi.
29. Yadro kimyoviy tarkibi.
30. Yadro va hujayra membranası.
31. Mitoz va sitokinez fazalari.
32. Yadrocha vazifasi.
33. Meyozning biologik vazifasi.
34. O'simlik hujayrasidagi sun'iy reproduksiya.
35. Xromatinning kimyoviy tarkibi.
36. Poliplodiya hodisasini yuzaga kelish sababi.
37. Apoptoz biologik ahamiyati.
38. Nekrozni hujayraga ta'siri.

39. Hujayralararo bog'lanish.
40. Xromosomalarning mutatsiyaga uchrashi va uning oqibatlari.
41. Mitotik xromosomalarning morfologiyasi. Kariotip va kariogramma.
42. Xromosomal morfologiyasi. Xromosomalarning faol qismlari: geteroxromatin va euxromatinning kimyoviy tuzilishi.
43. Meyoz bo'linish va uning fazalari. Meyoz I va Meyoz II.
44. Endomitoz, politeniya, polisomatia, amitoz.
45. Mitozda xromosomal harakati, hujayraning fiziologik o'zgarishi.
46. Mitoz va unga hujayralarning tayyorgarlik holati
47. Mitozning biologik va genetik ahamiyati.
48. Nukleoplazma: kimyoviy tarkibi va vazifalari.
49. Yadro qobig'ining tarkibiy qismlari: tashqi va ichki membranalar.
50. Yadro qobig'i. Yadro qobig'ining ahamiyati.
51. Yadroning tarkibiy qismlari, ularning strukturasi, kimyosi, vazifalari.
52. Yadrochalar soni-hujayra metabolizmi darajasining ko'rsatkichi.
53. Mitoxondriyalar ul'trastrukturasi.
54. Mitoxondriyada ATF sintezining amalga oshish jarayonlari.
55. Mitoxondriyada moddalarning metabolizmi.
56. Hujayra plastidalarining ta'rifi, guruhlari, ul'trastrukturaviy va kimyoviy tuzilishi.
57. Plastidalarda fotosintez metabolizmining amalga oshishi
58. Mikrofilamentlar, oraliq filamentlar va mikronaychalar vazifasi.
59. Sentiola, bazal tanachalar tuzilishi va vazifalari.
60. Vakuolalarning hosil bo'lishi, vazifasi.
61. Vakuola shirasining kimyoviy tarkibi.
62. Donador va silliq endoplazmatik to'r.
63. Lizosomlarning turlari.
64. Palazmatik membrana orqali moddalarning passiv transporti.
65. Aktiv transport va uning turlari.
66. Endositoz, fagositoz va ekzositoz.
67. Sitoplazmatik membrananing strukturaviy tuzilishi va vazifasi.
68. Sitoplazmatik membrananing kimyoviy tarkibi- lipidlar, oqsillar.
69. Membranalararo aloqalar.
70. Hujayraning asosiy biologik faoliyati.
71. Sitologiyaning qisqacha rivojlanish tarixi.
72. Hujayra yadrosida xromatin stukturasi.
73. O'zbekistonda hujayra biologiyasi fanining bugungi yutuqlari
74. Sitofizikaviy tekshirish metodlari.
75. Ultrastrukturani tekshirish metodi.
76. Tirik hujayralarni tekshirish metodlari.
77. Mitoz davrida hujayradagi fiziologik o'zgarishlar.
78. Endomitoz, politeniya, polisomatia, amitoz.
79. Xloroplast strukturasi va vazifasi.
80. Plastidalar–ularni strukturalari va turlari.

81. Prokariot hujayralarning fotosintezlovchi tuzilmalari
82. Mitoxondriyalarning kelib chiqishi haqida qanday gipotezalar.
83. Hujayra patologiyasi va uning sabablari.
84. Nekroz- hujayra membranasi o'tkazuvchanlik qobiliyatining buzilishi.
85. Hujayralar umrining uzunligi va qarish mexanizmi.
86. Nekrozga olib keluvchi omillar
87. Xromatin oqsillari.
88. Kariotip va kariogramma
89. Replikatsiya va transkripsiya jarayonlarida xromatinning xolati.
90. Xromatinning kimyoviy tavsifi
91. Interfazdagi xromosomaning yadro qobig'i va sitoplazma bilan bog'liqligi va aloqasi.
92. Xromatin oqsillarining DNK strukturasi shakllanishidagi roli.
93. Peroxisomalar tuzilishi va vazifasi.
94. Lizosomalarning tuzilishi va kimyoviy tarkibi.
95. Vakuolyar tizim membranalarining bir-biriga aylanishi.
96. Kiprikcha va bazal tanachalar kimyoviy tarkibi.
97. Bo'linish duki mikronaychalari.
98. Sentiolar- hujayra markazi sifatidagi ahamiyati.
99. Tubulinlar tuzilishi, tarkibi va mikronaychalar hosil bo'lishidagi o'rni.
100. Kariotip va uning o'zgarishi.

## **BOTANIKA FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI UCHUN SAVOLLAR RO'YXATI**

1. O'simlik organlari haqida umumiy tushuncha. O'simlik hujayrasining umumiy tavsifi.
2. O'simlik hujayrasi tarkibidagi organoidlarning xossalari. O'simlik hujayrasi po'stining tuzilishi, kimyoviy tarkibi va biologik ahamiyati. Sekreksiya va sutsimon moddalarning hujayra tarkibidagi ahamiyati.
3. To'qima, uning ta'rifi va tasnifi. Initsial hujayralar va ularning faoliyati.
4. Meristemalar - apikal, lateral, interkalyar tavsifi va faoliyati.
5. Epiderma – og'izchalar, trixomalarning tuzilishi va biologik ahamiyati.
6. Ikkilamchi qoplovchi to'qima – peridermaning hosil bo'lishi va biologik ahamiyati.
7. O'tkazuvchi to'qimalar – ksilema va floemaning tuzulishi hamda ahamiyati
8. Asosiy (assimilyatsion, g'amlovchi, aerenxima), so'ruvchi, moddalar harakatini tartibga soluvchi, ajratuvchi to'qimalar tuzilishi, o'simlik tanasida joylashishi, vazifalari, biologik va amaliy ahamiyati.
9. Ildizning birlamchi morfo-anatomik tuzilishi. Ildiz apeksi va qinchasining tuzilishi. Ildiz epidermasi va gipodermasi.
10. Ildiz po'stlog'i va endodermaning tuzilishi. Ildizda peritsiklning va o'tkazuvchi to'qimalarning markaziy o'q atrofida joylashuvi.



11. Yon va qo'shimcha ildizlarning shakllanishi. Ildizning ikkilamchi yo'g'onlashuvi.
12. Ildizning mikroorganizmlar bilan umumiy jamoani shakllantirishi.
13. Suvo'tlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar, bo'limlari, prokariot, mezakariot va eukariot guruhlari.
14. Suvo'tlarning kelib chiqishi va evolyutsion aloqalari. Tallomining morfologik jihatidan xilma - xilligi.
15. Suvo'tlarida zahira moddalari va ularning to'planish joylari. Ko'payishi. Sinflarga bo'linish asoslari.
16. Qizil suvo'tlarning tarqalishi va ahamiyati.
17. Suvo'tlar tallomining tuzilishi va xujayrasidagi pigmentlari. Sinflarga bo'linish asoslari.
18. Xarasimonlar - *Charophyceae* sinfi. Tallomining tuzilishi va ko'payishidagi o'ziga xos xususiyatlari. Asosiy vakillari.
19. Lishayniklarning umumiy tavsifi. Lishayniklar tallomidagi suvo'tlar va zamburug'lar, ularning o'zaro munosabati, taksonomik guruhlari, morfologik xillari.
20. Lishayniklar tallomining anatomik tuzilishi. Lishayniklarning ahamiyati.
21. Zamburug'larning umumiy tavsifi. Tanasining tuzilishi. Mitseliylarining shakl o'zgargan ko'rinishlari. Sinflarga bo'linishi.
22. Xitridiomitsetlar - *Chytridiomycetes* sinfi. Ushbu sinfga mansub vakillarning tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlari.
23. Oomitsetlar - *Oomycetes* sinfi. Ushbu sinfga mansub vakillarning tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlari.
24. Zigomitsetlar - *Zygomycetes* sinfi. Zigomitsetlarning ko'payishidagi o'ziga xos xususiyatlari.
25. Mukornamolar va Entomoftoranamolar tartiblari va ularning muhim vakillari.
26. Askomitsetlar yoki Xaltachali zamburug'lar - *Ascomycetes* sinfi va ularning asosiy vakillari.
27. Xaltachali zamburug'larning umumiy tavsifi. Xaltacha va askosporalarining rivojlanishi. Mevatanasining hosil bo'lishi va xillari.
28. Xaltachali zamburug'larning kelib chiqishi va ahamiyati.
29. Bazidiomitsetlar, yoki bazidiyali zamburug'lar - *Basidiomycetes* sinfi. Ularning umumiy tavsifi.
30. Qorakuya zamburug'lari va ulaning rivojlanish tsikli.
31. Zang zamburug'lari va ularning rivojlanish tsikli.
32. Bazidiyali zamburug'larning kelib chiqishi. Ko'payishi va muhim vakillari.
33. SHilimshiqlar tallomining tuzilishi. Ularning boshqa tuban o'simliklardan farqlari va o'xshashligi.
34. Yo'sinlarning qadimgi ajdodlari. Sinflarga bo'linishi.
35. Jigarsimonlar, antotserotsimonlar ularning ko'payishi, ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va ekologiyasi.

36. Marshantsiyakabilar, Sfagnumsimonlar ularning ko'payishi, ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va ekologiyasi.
37. Plauntoifalar (*Lusorodiorhyta*) umumiy tavsifi. Kelib chiqishi va rivojlangan davrlari. Hayotiy tsikli. Mikrofillilik.
38. Teng sporal va har xil sporal plaunlar. Plaunsimonlar va polushniksimonlar. Ularning umumiy tavsifi, tarqalishi va ekologiyasi.
39. Qirqbo'g'imtoifalar (*Equisetophyta*) bo'limini tavsifi. Ularning gieniyasimonlar, qirqbo'g'imsimonlar kabi sinflari, vakillari, kelib chiqishi, ekologiyasi va ahamiyati.
40. Qirqquloqtoifa (*Rolurodiophyta*) bo'limini umumiy tavsifi. Tarqalishi va ekologiyasi. Sporofitining morfologik tavsifi.
41. Makrofillilik, sporangiy va uning rivojlanishi. Soruslari, sinangiylari.
42. Teng va har xil sporal o'simliklar. Qazilma qirqquloqlar va ularning tuzilishi.
43. Paporotniktoifalarning ujojnksimonlar vakillarining ko'payishi, yer yuzida tarqalishi, o'sishi va rivojlanishi, ekologiyasi hamda xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
44. Polipodiumkabilar, salviniyakabilar kabi sinf va sinfchalarga bo'linishi, vakillarining ko'payishi, yer yuzida tarqalishi, o'sishi va rivojlanishi, ekologiyasi hamda xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
45. Novdaning boshlang'ich strukturaviy tuzilishi, dastlabki o'tkazuvchi tizimning shakllanishi.
46. Kurtak xillari va ularning novdada joylashuv qonuniyatlari. SHoxlanish turlari. Novda modifikatsiyasi.
47. Poyaning morfologik va anatomik tuzilishi. Poyaning birlamchi va ikkilamchi anatomik tuzilishi.
48. Yo'g'onlashuv jarayoniga meristemalarning biologik ahamiyati.
49. Yillik halqalar. Ko'p yillik o'simliklar poyasining himoyalanihida peridermaning ahamiyati.
50. Poyaning biologik va amaliy ahamiyati.
51. Bargning morfologik va anatomik tuzilishi.
52. Bargning rivojlanish bosqichlari.
53. Barg epidermasining tuzilishi. Barg mezofili.
54. Bargda o'tkazuvchi tizimning ishlash mexanizmi. Geterofilliya hodisasi.
55. Gul joylashuvi, tuzilishi, vazifasi. Gulda o'tkazuvchi tizimning ishlash mexanizmi.
56. Gulqo'rg'on. Androtsey. Ginitsey. CHanglanish - avtogamiya, kleystogamiya, geterostiliya.
57. Urug'lanish. Murtakning rivojlanishi. Gul formulasi va diagrammasi.
58. To'pgullarning morfologik belgilari, biologik ahamiyati. Gulli o'simliklar rivojlanishining umumiy sxemasi.
59. Bir uyli, ikki uyli va ko'p uyli o'simliklar.
60. Gulning kelib chiqishi va evolyutsiyasidagi yo'nalishlar haqida ayrim gipotezalar.

61. Urug'ning rivojlanishi. Meva po'sti - perikarpiy. Bir pallali va ikki pallali o'simliklarning urug'i va murtagi.
62. Endosperm. Perisperm. CHala rivojlangan va reduksiyalangan murtak. Urug'ning morfologik xillari.
63. Mevaning hosil bo'lishi. Geterokarpiya va geterospermiya. Urug' va mevalarning inson hayotida tutgan o'rni.
64. Suvo'tlarning tarqalishiga biotik va abiotik omillarning ta'siri.
65. Suvo'tlarning ekologik guruhlari, ularning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati.
66. Tillarang suvo'tlar (*Chrysophyta*) bo'limini sinflarga bo'linishi. Asosiy vakillari. Ahamiyati va tarqalishi.
67. Qarag'aytoifa (*Pinorhuta*) bo'limi. Ochiq urug'lilarning umumiy tavsifi. Kelib chiqishi. Keng tarqalgan davrlari. Urug'lanish. Urug'ning rivojlanishi va tuzilishi.
68. Ochiq urug'lilarning qubbalar tuzilishining o'ziga xosligi. O'sishi va rivojlanishi, ekologiyasi, xo'jalikdagi ahamiyati.
69. Archadoshlar oilalarining umumiy tavsiflari. Ularning turkum va turlari, ekologiyasi, biosferadagi va xo'jalikdagi ahamiyati.
70. Urug'li qirqquloqsimonlar sinfi. Umumiy tavsifi. Sinfning qabilalarga bo'linishi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari.
71. Qizilchadoshlar oilasi. Sinfning qizilchanamolar, gnetumnamolar kabi qabilalari va ularning umumiy tavsifi.
72. Qizilchanamolarning gulli o'simliklarga o'xshash va farq qiladigan tomonlari, ekologiyasi va ahamiyati.
73. Qarag'aydoshlar oilasi. Umumiy tavsifi. Geografik tarqalishi. Muhim turlari va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
74. Magnoliyatoifa (*Magnoliophyta*) yoki yopiq urug'li, gulli o'simliklar (*Angiospermae*) bo'limi. Bo'limning umumiy tavsifi. Unga kiruvchi oilalar va turkumlar. Ularning tarqalishi va biosferadagi o'rni.
75. Gulli o'simliklarning bo'limlar, sinflar (ajdodlar), sinfchalar (ajdodchalar), qabilalar (tartiblar), oilalar, turkumlar va turlarga bo'linishi haqidagi tushunchalar.
76. Bir va ikki urug'pallalilar sinfi. Ularning farq qiluvchi va o'xshashlik belgilari. Umumiy tavsifi va sinfchalarga bo'linishi.
77. Magnoliyakabilar, ayiqtovonkabilar bo'linishi jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Bir urug' pallalilar bilan o'zaro bog'liqligi.
78. chinnigulkabilar, chinorkabilar bo'linishi jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Bir urug' pallalilar bilan o'zaro bog'liqligi.
79. ra'nokabilar, yalpizkabilar, qoqio'tkabilar bo'linishi jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari. Bir urug' pallalilar bilan o'zaro bog'liqligi.
80. Ko'knornamolar qabilasi. Ko'knordoshlar oilasi: tavsifi, vakillari va bioekologiyasi.
81. Chinnigulnamolor qabilasi. CHinniguldoshlar oilasi: tavsifi, vakillari va bioekologiyasi.

82. CHinornamolar qabilasi. CHinordoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.
83. Yong'oqnamolar qabilasi. Yong'oqdoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.
84. Tolnamolar qabilasi. Toldoshlar oilasi: tavsifi, vakillari
85. Qovoqnamolar qabilasi. Qovoqdoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.
86. Gulxayrinamolar qabilasi. Gulxayridoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.
87. Sutlamanamolar qabilasi. Sutlamadoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.
88. Ra'nonamolar qabilasi. Ra'nodoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.
89. Gazako'tnamolar qabilasi. Ro'yandoshlar va gazako'tdoshlar oilalari: tavsifi, vakillari.
90. Ituzumnamolar qabilasi. Ituzumdoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.
91. Pechaknamolar qabilasi. Pechakdoshlar va zarpechakdoshlar oilalari: tavsifi, vakillari.
92. Govzabonnamolar qabilasi. Govzabondoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.
93. Sigirquyruqnamolar qabilasi. Sigirquyruqdoshlar va zubturdoshlar oilalari: tavsifi, vakillari.
94. Yalpiznamollar qabilasi. Tizinguldoshlar va yalpizdoshlar oilalari: tavsifi, vakillari.
95. Qo'ng'iroqgulnamolar qabilasi. Qo'ng'iroqguldoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.
96. Qoqio'tnamolar qabilasi. Qoqio'tdoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.
97. Bir urug'pallali o'simliklarni ikki urug'pallali o'simliklardan farqi va ular bilan o'zaro bog'liqligi. Keng tarqalgan oilalari, asosiy vakillari, ularning tuzilishi, ahamiyati.
98. Lolanamolar qabilasi. Loladoshlar, piyozdoshlar oilalari: tavsifi, vakillari.
99. Chuchmomadoshlar va gulsafsardoshlar oilalari: tavsifi, vakillari.
100. Qo'g'anamolar qabilasi. Qo'g'adoshlar oilasi: tavsifi, vakillari.

## **ZOOLOGIYA FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI UCHUN SAVOLLAR RO'YXATI**

1. Zoologiya fanining predmeti va vazifalari Zoologiyaning fanlar sistemasi ekanligi
2. Zoologiya fanini rivojlantirishda o'zbek zoolog-olimlarining roli
3. Zoologiya fanining rivojlanish bosqichlar
4. Umurtqasiz hayvonlarning hozirgi zamon sistematikasi Tiplar va asosiy guruhlar
5. Bir hujayrali hayvonlarning umumiy tavsifi va asosiy tiplari
6. Sarkomastigoforalar tipining tavsifi va klassifikatsiyasi
7. Ildizoyoqlilar kenja sinfi Tuzilishi xususiyatlari Asosiy turkumlari va turlari Tarqalishi va ahamiyati
8. Foraminiferalarning hayotiy sikli
9. O'simliksimon xivchinlilar kenja sinfi Tuzilishi va hayot kechirish xususiyatlari Asosiy turkumlari Ekologiyasi Ahamiyati
10. Sporalilar tipi Tavsifi va klassifikatsiyasi

11. Gregarinalarning tuzilishi, hayot sikli va tarqalishi
12. Koksidiyalarning hayot sikli va ahamiyati
13. Bezgak plazmodiysining hayot sikli
14. Kasallik qo'zg'atuvchi (patogen) sarpodalilar va xivchinlilar
15. Knidosporidiyalar (Miksosporidiyalar) tipi Tavsifi va klassifikasiyasi Asosiy turlari
16. Mikrosporidiyalar tipi Tavsifi va asosiy vakillari
17. Infuzoriyalar tipi Umumiy xususiyatlari va klassifikasiyasi
18. Inforzoriyalar tipining tavsifi va klassifikasiyasi
19. Kiprikli infuzoriyalar sinfi Tavsifi, asosiy vakillari va ahamiyati
20. Parazit infuzoriyalar Ularning umurtqali hayvonlar va odamlarda kassilik qo'zg'atuvchi guruh va turlari
21. Bir hujayrali hayvonlarning tinch davri Uning biologik ahamiyati
22. Bir hujayrali hayvonlarning filogeniyasi
23. Ko'p hujayrali hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar
24. Plastinkalilar tipi Umumiy tavsifi Tuzilishi Asosiy vakillari
25. Bulutsimonlar tipi Tavsifi va klassifikasiyasi
26. Bulutsimonlarning ko'payishi va uning asosiy shakllari
27. Kovakichlilar tipi Tavsifi va klassifikasiyasi
28. Gidrasimonlar sinfi Tavsifi va asosiy vakillari
29. Chuchuk suv gidrasining tashqi va ichki tuzilishi Ko'payish usullari
30. Gidropolip va gidromeduzalarning hayot sikli
31. Marjonpoliplar sinfi Tavsifi Asosiy turlari Ekologik xususiyatlari
32. Ssifomeduzalar sinfining tavsifi va asosiy vakillari
33. Taroqlilar tipi Tavsifi va asosiy vakillari
34. Yassi chualchanglar tipi Tavsifi va klassifikasiyasi
35. Yassi va yumaloq chualchanglarda teri muskul xaltasi devorining tuzilishini qiyosiy xarakteristikasi
36. Yassi chualchanglarning ovqat hazm qilish, ajratish va nerv sistemalarining tuzilishi
37. Kiprikli chualchanglar sinfi Tavsifi Ularning nazariy va amaliy ahamiyati
38. So'rg'g'ichlilar sinfi Umumiy tavsifi Asosiy vakillari
39. Jigar qurtining hayot sikli
40. Lentali chualchanglar sinfi Tavsifi va ahamiyati
41. Qoramol gijasining hayot sikli va ahamiyati
42. Monogenetik so'rg'ichlilar Tuzilish xususiyatlari, asosiy vakillari va ahamiyati
43. Yassi chualchanglarning filogeniyasi va parazitizmning kelib chiqishi
44. Nemertinalar tipi Tavsifi va klassifikasiyasi
45. Trilobatalarning tavsifi va nazariy ahamiyati
46. Yumaloq chualchanglar tipi Tavsifi va klassifikasiyasi
47. Nematodalar sinfi; Tavsifi va asosiy turlari

48. Askaridalar Tuzilishi va hayot sikli Ularning chorvachilik va tibbiyotdagi ahamiyati
49. Bolalar ostrisasi va qilbosh nematoda: ularning patogen ahamiyati
50. Yumaloq chuvalchanglar filogeniyasi
51. Tikanboshlilar (xartumboshlilar) tipi Tavsifi va asosiy turlari Ahamiyati
52. Xalqali chuvalchanglar tipi Umumiy tavsifi va klassifikasiyasi
53. Ko'p qilli xalqali chuvalchanglar sinfi Tavsifi; Turlari; Ahamiyati
54. Polixetalar sinfining klassifikasiyasi Kenja sinflar va asosiy turlari ahamiyati
55. Kamqilli halqali chuvalchanglar sinfi Tavsifi va ahamiyati
56. Kam qilli xalqali chuvalchanglarni ichki organlari va sistemalari Tuzilish xususiyatlari
57. Zuluklar sinfi Xarakteristikasi va ahamiyati
58. Halqali chuvalchanglarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati
59. Xalqali chuvalchanglarning filogeniyasi
60. Trilobitalarning tavsifi va nazariy ahamiyati
61. Bo'g'imoyoqlilar tipi Tavsifi va klassifikasiyasi
62. Qisqichbaqasimonlar sinfi Tavsifi, asosiy vakillari va ahamiyati
63. Unoyoqli qisqichbaqasimonlar Asosiy turlari va ularning ahamiyati
64. Jag'oyoqli qisqichbaqasimonlar kenja sinfi Tavsifi Asosiy vakillari; Ahamiyati
65. Qisqichbaqasimonlarning ko'payishi va rivojlanish xususiyatlari Lichinkalarining turlari
66. Ko'p oyoqlilar sinfi Tavsifi va asosiy vakillari
67. Hasharotlarni tashqi tuzilishi Tana bo'limlari va undagi organlar
68. Hasharotlar og'iz organlarining tuzilishi va ularning asosiy turlari
69. Hasharotlar sinfining klassifikasiyasi
70. Hasharotlarning rivojlanishi va uning shakllari
71. To'g'ri qanot hasharotlar turkumi Ularning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati
72. To'g'ri qanotlilar turkumi Asosiy guruhlari tarqalishi turlari Ahamiyati
73. Yarim qattiq qanotli hasharotlar turkumi Asosiy vakillari Ahamiyati
74. Tangacha qanotli hasharotlar Ularning ahamiyati
75. Burgalar turkumi Ularning tuzilishi va kasallik tarqatishi
76. Qattiq qanotlilar turkumi Ularning ahamiyati
77. Jamoa (polimorf) bo'lib yashovchi hasharotlar
78. Zararkunanda hasharotlar va ularning asosiy guruhlari
79. Infekcion va invazion kasalliklarni tarqatishda kanalar va hasharotlarning roli
80. Qishloq xo'jaligiga foyda keltiruvchi hasharotlar
81. O'rgimchaksimonlar sinfining tavsifi va klassifikasiyasi
82. O'rgimchaksimonlar sinfi Tavsifi Asosiy vakillari Ahamiyati

83. Kanalar Tuzilishi Asosiy turlari va ahamiyati
84. Kasallik tarqatuvchi kanalar Ularning asosiy guruhlari va turlari
85. O'rgimchaklar turkumi; Tuzilishi xususiyatlari Asosiy turlari; Tarqalishi Ahamiyati
86. O'zbekistonda uchrovchi zaharli bug'imoyoqlilar
87. Bo'g'imoyoqlilarning filogeniyasi
88. Onixoforalar tipi Tavsifi, asosiy turlari
89. Mollyuskalar tipi Tavsifi va klassifikatsiyasi
90. Qorinoyoqli mollyuskalar sinfi Tavsifi va asosiy vakillari Ahamiyati
91. Ikki pallali chig'anoqli mollyuskalar sinfi Tavsifi, asosiy turlari va ahamiyati
92. Bosh oyoqli mollyuskalar sinfi Tavsifi Asosiy vakillari
93. Mollyuskalar ekologiyasi va ahamiyati
94. Mollyuskalar filogeniyasi
95. Paypaslagichlar tipi Tavsifi va klassifikatsiyasi
96. Qiljag'lilar tipi Umumiy tavsifi Vakillari Tarqalishi
97. Ignatanlilar tipi Tavsifi va klassifikatsiyasi
98. Umurtqasiz hayvonlarning ajratish organlarining tuzilish xillari
99. Umurtqasiz hayvonlarning nafas olish organlari va uning shakllari
100. Umurtqasiz hayvonlarning xalq xo'jaligida amaliy ahamiyati
101. Xordalilar (Chordata) tipi tipining umumiy tavsifi Xordalilarning bir-biriga o'xshash belgilari
102. Bosh suyaksizlar (Acrania) kenja tipi Umumiy tavsifi Bosh suyaksizlar tuzilishini lantsetnik misolida o'rganish
103. Lichinka xordalilar (Urocholata) yahni qobiqlilar (Tunicata) kenja tipi Umumiy tavsifi
104. Astsidiyalar (Ascidiae) sinfi Tashqi va ichki tuzilishlari Rivojlanishi
105. Umurtqalilar (Vertebrata), ya'ni bosh suyaklilar (Craniata) kenja tipi Umumiy tavsifi Tashqi va ichki tuzilishi
106. Jag'sizlar (Agnatha) katta sinfi haqida ma'lumot
107. Topgarak og'izlilar (Cyclostomata) sinfi Umumiy tavsifi Tashqi va ichki tuzilishi Topgarakog'izlilarining sistematikasi va ekologiyasi
108. Baliqlar (pisces) katta sinfi haqida umumiy ma'lumot
109. Tog'ayli baliqlar (Chondrichthyes) sinfi Tuzilishi va rivojlanishi Akulalar va skatlar
110. Suyakli baliqlar (Osteichthyes) sinfi Klassifikatsiyasi va xilma - xilligi
111. Suvda hamda quruqlikda yashovchilar (Amphibia) sinfi vakillarining tuzilishi
112. Suvda hamda quruqlikda yashovchilarning koppayishi, rivojlanishi va xilma - xilligi
113. Sudralib yuruvchilar (Reptilia) sinfi Tashqi va ichki tuzilishi
114. Hozirgi sudralib yuruvchilarning sistematik guruhlari
115. Sudralib yuruvchilarning koppayishi, rivojlanishi va kelib chiqishi
116. Sudralib yuruvchilar ekologiyasi va iqtisodiy ahamiyati

117. Sudralib yuruvchilarning xilma - xilligi va ahamiyati
118. Qushlar (Aves) sinfi Qushlarning tashqi tuzilishi, skeleti va muskullari
119. Qushlarning ichki tuzilishi Qushlar xilma - xilligi va sistematikasi (yuqori taksonlar misolida)
120. Qushlarning koppayishi va rivojlanishi
121. Qushlarning kelib chiqishi va ekologiyasi
122. Sut emizuvchilar (Mammalia) sinfi Tashqi va ichki tuzilishi
123. Sut emizuvchilarning ovqat hazm qilish sistemasining tuzilishi Tish formulasi
124. Sut emizuvchilarning sistematik guruhi
125. Sut emizuvchilarning tabiatda va inson faoliyatidagi ahamiyati CHorva mollari
126. Sut emizuvchilarning koppayishi va rivojlanishi
127. Sut emizuvchilar kelib chiqishi va ekologiyasi
128. Xordali hayvonlarning asosiy xususiyatlari va ahamiyati
129. Hayvonot dunyosini muhofaza qilish Opzбекистон Respublikasi Qizil kitobi
130. Hayvonlarning yashash muhitiga moslashganligi

## **MIKROBIOLOGIYA FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI UCHUN SAVOLLAR RO'YXATI**

1. Mikrobiologiya fanining maqsadi, vazifasi va boshqa fanlar bilan aloqasi
2. Bakteriyalarning ko`payish fazalari
3. Prokariot va eukariot organizmlarning o`xshashligi va farqli belgilari
4. Xivchinlar, fimbriylar, ularning tuzilishi va ahamiyati
5. Viruslarga xos xususiyatlar Amerikalik olim U Stenlining viruslar bo`yicha qilgan ishlari
6. Mikroorganizmlarda sintezlanadigan aminokislotalar, oqsillar va vitaminlar
7. Infeksiya haqida umumiy tushuncha
8. A Levengukning bakteriyalarni kashf etishi
9. Nitrifikatsiya jarayoni
10. Dissatsiatsiya va siklogeniya nazariyalari
11. Bakteriofag to`g`risidagi nazariyalar
12. Mikrobiologiya fanining rivojlanishiga SNVinogradskiy, A Flemingning qo`shgan hissalari
13. Havo mikroflorasi va uni tekshirish usullari
14. Mikroorganizmlarga biologik omillarning ta`siri
15. Bakteriyalardagi transformatsiya, transduktsiya va konyugatsiya hodisalari
16. Bakteriyalarning xalq xo`jaligidagi ahamiyati
17. Sof va elektiv kulturalar Mikroorganizmlar uchun oziq muhiti va uning turlari



18. Mikroorganizmlar genetikasi: fenotip o`zgaruvchanlik
19. Denitrifikatsiya jarayoni va uning qishloq xo`jaligi uchun ahamiyati
20. Mikroorganizmlarning morfologiyasi, tuzilishi va sistematikasi
21. N A Krasilnikov va Berti bo`yicha mikroorganizmlar klassifikatsiyasi
22. Antibiotiklar va ularning mikroblarga ta`sir etish mexanizmi
23. Organizmdagi tabiiy himoya qilish vositalari
24. Mikroorganizmlarning uglerod bilan oziqlanishi
25. Mikroblarning toksin hosil qilishi va antitoksinlar
26. Immunitet to`g`risidagi nazariyalar
27. Tabiatda azotning aylanishi va uning ahamiyati
28. Tuproq mikroflorasi va uning ahamiyati
29. Ammonifikatsiya jarayoni va uning ahamiyati
30. Fagning tarqalishi, ajratib olish usullari va fagning titrini aniqlash usullari
31. Mikroorganizmlarning uglerod bilan oziqlanishi
32. Suvni biologik tozalash usullari
33. Mikroorganizmlarning azot bilan oziqlanishi
34. Bakteriyalarda kapsula hosil bo`lishi
35. Mikroblarning virulentligi va uni pasaytirishda qo`llaniladigan usullar
36. Achish yoki bijg`ish, uning turlari
37. Qishloq xo`jaligi uchun azotofiksatsiyaning ahamiyati
38. Viruslarning kashf etilishi
39. Tuproq mikrobiologiyasining rivojlanishida SNVinogradskiy ishlari
40. Mikroorganizmlarning azot bilan oziqlanishini tushuntiring
41. Bakteriyalarning morfologiyasi va sistematikasi
42. Antibiotiklar va ulardan meditsina va veterinariyada foydalanish
43. Suvni tozalash usullari
44. Bakteriofaglar adaptatsiyasi
45. Avtotrof va getrotrof oziqlanuvchi mikroorganizmlar
46. Bakteriyalarning spora hosil qilishi
47. Mikroorganizmlarga kimyoviy omillarning ta`siri
48. Tuganak bakteriyalarning kashf etilish tarixi
49. Bakteriyalarda sodir bo`ladigan xemosintez jarayonini tushuntiring
50. Mikroorganizmlarda hosil bo`ladigan fermentlari va ularning ahamiyati
51. Bijg`ish jarayoni va uning turlari
52. Atmosferadagi biologik azotning o`zlashtirilishi
53. I I Mechnikovning fagotsitoz nazariyasi va uning mohiyati
54. Tuganak bakteriyalar va ularning ahamiyati
55. Suv mikroflorasi
56. Tuproq hosil bo`lishida mikroorganizmlarning roli
57. Tuproq mikroflorasi va uning ahamiyati
58. Mochevinaning mikroorganizmlar ta`sirida parchalanishi
59. Mikroorganizmlarning o`zgaruvchanligi to`g`risida fikrlar: monomorfizm va polimorfizm

60. Oltinugurt bakteriyalari va ularning ahamiyati
61. Mikroorganizmga fizikaviy omillar: namlik, suvda erigan moddalar kontsentratsiyasining ta'siri
62. Hayvonlardan olinadigan antibiotiklar
63. Sharsimon bakteriya hujayralarning kimyoviy tarkibi
64. Halq xo'jaligida va meditsinada mikroorganizmlardan foydalanish
65. Hozirgi davr zamonaviy mikrobiologiyasi
66. Bakteriyalarda spora hosil bo'lishi
67. Yuqori o'simliklardan olinadigan antibiotiklar
68. Bakteriyalarning nafas olishi
69. Viruslarning o'lchami, tuzilishi va ximiyaviy tarkibi
70. Suniy immunitet va uni hosil qilishning turli usullari
71. Bakteriyalarning harakatlanishi Fimbriylar
72. Mikroorganizmlarning inson hayotidagi ahamiyati
73. Mikrobiologiya fanining rivojlanishida ALevenguk, Lui Paster, Robert Kox va SNVinogradskiyning xizmatlari
74. Bakteriya hujayrasining ichki tuzilishi: hujayra membranasi, sitoplazma, yadro, qobiq, vakuola, ularning tuzilishi, vazifasi
75. Mikroorganizmlar sistematikasining printsiplari (xususiyatlari)
76. Mikroorganizmlarga haroratning ta'siri
77. Viruslarga xos xususiyatlar, viruslarning klassifikatsiyasi
78. Mikrobning virulentligini pasaytirishda foydalaniladigan usullar
79. Mikroorganizmlarning suvda tarqalishi
80. Antibiotiklarni olish usullari (penitsillin misolida)
81. Tuproq mikroflorasi va uning ahamiyati
82. Tayoqchasimon va spirillalarning oraliq guruhlariga bo'linishi
83. O'simliklardan olinadigan antibiotiklar Tokinning ishlari
84. Mikroorganizmlarning nafas olishi va nafas olishning mohiyati
85. Mikroorganizmlarning oziqlanish tiplari: avtotrof va geterotrof oziqlanish
86. Toksin va antitoksin Ularning olinishi va ishlatilishi
87. Patogen mikroorganizmlar va ularning ahamiyati
88. Ifloslangan suvlarni tozalashda bakteriyalarning roli
89. Antibiotiklarning mikroblarga ta'sir etish mexanizmi
90. Viruslarning rivojlanishi
91. Immunitet to'g'risida tushuncha, immunitet turlari
92. Molekulyar azotni o'zlashtiruvchi mikroorganizmlarning ahamiyati
93. Bakteriyalarning ko'payishi
94. Tabiiy immunitet va uning turlari (misollar bilan tushuntiring)
95. Molekulyar azotni o'zlashtiruvchi mikroorganizmlar
96. Kokklarning o'zaro guruhlariga bo'linishi
97. Mikrobning patogenligi virulentligi va zaharliligi
98. Bakteriofaglarning kashf etilish tarixi, morfologiyasi va fiziologiyasi
99. Mikrobiologiya fanining rivojlanish tarixi

100. Nitrifikatsiya jarayoni va uning ahamiyati

## **BIKIMYO FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI UCHUN SAVOLLAR RO'YXATI**

1. Bikimyo fani nimani o'rgatadi ?
2. Biokimyo faning qisqacha rivojlanish tarixini ta'riflab bering .
3. O'zbekistonda biokimyo fanining asoschisi va mazkur fanning rivojlanishiga xissa qo'shgan o'zbek olimlari haqida ma'lumot bering ?
4. Nimalarga asoslanib biokimyo fani tarmoqlarga bo'linadi va ushbu tarmoqlari haqida ta'riflab bering.
5. Biokimyo fanning qanday o'rganish usullarini bilasiz va ular nimalarga asoslangan ?
6. Elektroforez usuli va uning mohiyatini aytib bering.
7. Xromotografiya usuli qanday usul, uning turlari va uning ahamiyatini yoritib bering.
8. Tsentrifugalash metodi nima? Uning mohiyati nima?
9. Izotop metodini ilmiy – tadqiqot ishlardagi o'rni nimadan iborat ?
10. Biolog – bakalavr tayyorlashda fanlar tizimida biokimyo fanining ahamiyati nimadan iborat ?
11. Tirik organizmlarning hayot – faoliyatida oqsillar ahamiyatini qanday tushunasiz ?
12. Oqsillarning elementar tarkibini va aminokislotalarning umumiy xususiyatini ta'riflab bering.
13. Oqsillarning qanday o'rganish usullarini bilasiz ?
14. Oqsillarni nomlanishi va klassifikatsiyasi nimalarga asoslanadi ?
15. Qanday aminokislotalarni bilasiz ? Formulalarni yozib bering
16. Almashinmaydigan aminokislotalar formulalarini yozib bering.
17. Aminokislotalarning S- va N- uchlarini qanday usullar bilan aniqlanadi?
18. Oqsillarning birlamchi va ikkilamchi strukturalarini ta'riflab bering.
19. Oqsillarning uchlamchi va to'rtlamchi strukturalarini ta'riflab bering.
20. Oqsillarning fizik va kimyoviy hususiyatlarni ta'riflab bering.
21. Fermentlarning asosiy vazifalari va hujayralarda to'planishi haqida ta'riflab bering.
22. Biokatalizatorlarning anorganik katalizatorlardan farqlari nimada ?
23. Fermentlarning klassifikatsiyasi aytib bering.
24. Ikki kom'onentli va mulg'timer fermentlar nima ? Misollar asosida tushuntiring
25. Fermentlarning qanday aktivlik markazilari haqida bilasiz ?
26. Mixaelis konstantasi. Uning ahamiyati nimada ?
27. Fermentlarning aktivligiga ta'sir qiluvchi qanday omillarini bilasiz ?

28. Aktivator va ingibitorlarning fermentativ jarayonlarda qanday ahamiyati bor ?
29. Fermentlar ta'sir mexanizmini tushuntirib bering.
30. Ferment –substrat kom'leksining hosil bo'lish mexanizmini tushuntirib bering.
31. Enzimologiya fani nima ? Uning qisqacharivojlanish tarixinita'riflab bering.
32. Kofermentlarning klassifikatsiyasini ta'riflab bering.
33. Qanday nikotinamidli kofermentlarni bilasiz ?
34. Flavimli kofermentlar haqida yoritib bering.
35. Glyutation kislotasining vazifalari nimadan iborat ?
36. Fosfat gruppasini tashuvchi kofermentlar
37. Uglerod – uglerod bog'larning katalizlaydigan kofermentlar haqida ma'lumot bering ?
38. Regulyator fermentlar nima ?
39. Desenzibilizatsiya jarayoni nima ?
40. Fermentlar aktivligining boshqarilishini tushuntirib bering.
41. Vitaminlarning organizm uchun ahamiyati va ularning klassifikatsiyalash nimalarga asoslanganligini ayting.
42. A vitaminining ahamiyati va uning tuzilishini aytib bering.
43. A vitaminiga boy bo'lgan mahsulotlar, organizmning sutkalik talabi va avitaminozlar haqida ta'riflab bering.
44. D vitaminining ahamiyati, tuzilishi, va avitaminozlarni aytib bering.
45.  $\alpha$  –tokaferonning organizmdagi vazifalari va tuzilishini aytib bering.
46. Qanday vitamin sifat moddalarni bilasiz ?
47. Antigemarrogik vitamin, uning tuzilishi va vazifalarini aytib bering.
48. Kofermentlik vazifasini bajaruvchi qanday vitaminlarni bilasiz ?
49. Qon ivishini boshqarishida qanday vitamin qatnashadi ?
50. Suvda eriydigan vitaminlarni aytib bering.
51. Biokimyo fanining predmeti
52. Biokimyo fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan chet el olimlari
53. Biokimyo fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan o'zbek olimlari
54. Biokimyoda qo'llaniladigan metodlar
55. Biokimyo tarmoqlari
56. Oqsillar haqida umumiy tushuncha
57. Oqsillarning kimyoviy tarkibi
58. Oqsillar funksiyalari
59. Aminokislotalar, ularning fiz-kimyoviy xossalari
60. Nuklein kislotalarning ochilish tarixi
61. Nuklein kislotalarning kimyoviy tarkibi
62. Nuklein kislotalarning tuzilishi
63. DNK strukturasi
64. Chargaff qoidasi

65. DNK ning birlamchi strukturasi
66. DNKning ikkilamchi strukturasi
67. RNK turlari va tuzilish
68. i-RNK strukturasi
69. t-RNK strukturasi
70. Uglevodlarning tirik organism uchun ahamiyati va funksiyalari
71. Uglevodlarning kimyoviy tarkibi
72. Uglevodlar klassifikatsiyasi
73. Monosaxaridlar klassifikatsiyasi
74. Disaxaridlar klassifikatsiyasi
75. polisaxaridlar klassifikatsiyasi
76. Lipidlarning kimyoviy tarkibi, tuzilishi va funksiyasi
77. Lipidlar klassifikatsiyasi
78. Yog'larni xarakterlovchi sifat ko'rsatkichlari
79. Fermentlar haqida umumiy tushuncha
80. Fermentlarning tuzilishi
81. Fermentlarning ta'sir mexanizmi
82. Fermentlar klassifikatsiyasi
83. Vitaminlar haqida umumiy tushuncha
84. Suvda eriydigan vitaminlar
85. Yog'da eriydigan vitaminlar
86. Moddalar almashinuvi haqida umumiy tushuncha
87. Anabolizm va katobolizm
88. Lipidlarning parchalanishi. Ularning  $\beta$  va  $\alpha$  – oksidlanishi
89. Uglevodlar almashinuvi haqida umumiy tushuncha
90. Uglevodlarning parchalanishi
91. Glikoliz umumiy tushuncha
92. Krebs sikli umumiy tushuncha
93. Oqsillar almashinuvi haqida umumiy tushuncha
94. Oqsillarning parchalanishi
95. Ornitin sikli
96. Oqsil biosintezi haqida umumiy tushuncha
97. Nuklein kislotalar biosintezi
98. Replikatsiya umumiy tushuncha transkripsiya umumiy tushuncha

## **GISTOLOGIYA VA EMBRIOLOGIYA FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI UCHUN SAVOLLAR RO'YXATI**

